

Sayohat va ziyorat

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Gidromelioratsiya" fakulteti, Gidrologiya (suv omborlarida) ta'lif yo'nalishi, 1-bosqich, 117-guruh talabalari guruh murabbiysi S.R. Mansurov rahbarligida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov xotirasini yod etib, "Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy memorial majmua"ga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida Birinchi Prezidentimiz monumenti poyiga gul qo'yilib, ulug' insonning beqiyos xizmatlari aks ettirilgan foto suratlar, video lavxalar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Xalqimiz o'zining qisqa muddat - 25 yilda erishgan barcha yutuq va marralarini aynan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog'laydi va shu ulug' insonning beqiyos xizmatlari ekanligini yana bir bor his qiladilar.



Guruhi murabbiysi S. Mansurov axboroti

Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov